Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR

Obilov Mirkomil Rashidovich

Guliston davlat universiteti

iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent,

E-mail: mirkomilrashidovich@gmail.com

ORCID: 0009-0002-7904-1587

Annotatsiya. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning barqaror va muvozanatli rivojlanishi, aholi turmush darajasi hamda farovonligining oshishi bevosita fuqarolarning moliyaviy savodxonligi darajasiga bog'liq. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatda sog'lom ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlik tashabbuslari va biznes faoliyatining kengayishi uchun muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada aholining moliyaviy savodxonligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy infratuzilma, moliyaviy xizmatlar.

Abstract. Global practice shows that the sustainable and balanced development of the economy, as well as the improvement of the population's living standards and well-being, directly depend on the level of financial literacy among citizens. Financial literacy plays an especially important role in shaping a healthy business environment, expanding entrepreneurial initiatives, and increasing business activity in the country. From this perspective, this article provides a systematic analysis of the main factors influencing the financial literacy of the population.

Key words: sustainable development, economic growth, financial literacy, financial infrastructure, financial services.

Аннотация. Мировая практика показывает, что устойчивое и сбалансированное развитие экономики, повышение уровня жизни и благосостояния населения напрямую зависят от уровня финансовой грамотности граждан. Особое значение финансовая грамотность приобретает в формировании здоровой предпринимательской среды, расширении предпринимательских инициатив и деловой активности в стране. С этой точки зрения в данной статье системно проанализированы основные факторы, влияющие на финансовую грамотность населения.

Ключевые слова: устойчивое развитие, экономический рост, финансовая грамотность, финансовая инфраструктура, финансовые услуги.

KIRISH

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida moliyaviy bilimlarning yetarli darajada shakllanmaganligi iqtisodiyotda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishni cheklab, iqtisodiyotga sarmoya kiritish jarayonlari hamda davlatning iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish ushbu cheklovlarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, birlamchi moliyaviy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish shaxsiy moliyani samarali boshqarish, aholining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

Uy xo'jaliklarining iqtisodiy xulq-atvori iqtisodiy faollikni belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib, mazkur xulq-atvor bevosita aholining moliyaviy savodxonlik darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy adabiyotlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zaruratini yuzaga keltiruvchi omillar sifatida moliyaviy sohada birlamchi bilimlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, oilaviy byudjet va individual daromadlarni rejalashtirish hamda taqsimlash ko'nikmalarini rivojlantirish ehtiyoji, moliyaviy va siyosiy institutlarga ishonchni mustahkamlash zarurati, shuningdek, soliq madaniyatini yuksaltirish masalalari alohida ta'kidlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining doimiy e'tiborida bo'lib kelgan. Respublikaning ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlaridan A. Vaxobov moliyaviy savodxonlik kategoriyasini fuqaroning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida faol pozitsiyani egallashi, jamiyatda o'zi va oila a'zolarining moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi sifatida namoyon bo'ladigan insoniy fazilat sifatida ta'rifiyladi [1].



Shuningdek, tadqiqotchi O. Teshaboyeva aholi moliyaviy savodxonligining o'sishi uning o'z moliyaviy mablag'larini rejalashtirish, daromad va xarajatlarini tartibga solish, turli moliyaviy instrumentlardan foydalana olish borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarining kengayib hamda takomillashib borishini anglatishini, bu esa o'z navbatida mamlakatdagi tadbirkorlik faoliyati va aholi daromadlari darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [2].

Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni muayyan tizimga solish muhim o'rin tutadi.

R. Voskanyanning ta'kidlashicha, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasini uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlamasdan turib hal etib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, u quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:

1. mamlakatdagi iqtisodiy ta'lim darajasi;
2. moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi;
3. aholining iqtisodiyotga bo'lgan ishonch darajasi;
4. moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari [3].

Fikrimizcha, aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasi keng qamrovli mazmunga ega bo'lib, uni yanada aniqroq yoritish moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni turli darajalar kesimida chuqurroq tahlil qilishni talab etadi. Bu esa mazkur tushunchaning alohida shaxs, muayyan hudud aholisi hamda mamlakat miqyosidagi jihatlarini ilmiy asosda tabaqalashtirish imkonini beradi. Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon usuli, ijtimoiy so'rov o'tkazish, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kishilik jamiyatining samarali rivojlanishi uchun individual rivojlanish zarur. Tashqi muhit doimo o'zgarib boradi va bugungi kunda eskirgan hamda samarasiz bo'lib ko'rinayotgan ayrim sifatlar ertangi kunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shu bois, o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida insonning yangi sifatlarini, xususan, inson kapitali konsepsiyasida bilim va ko'nikmalar toifasiga kiritiladigan moliyaviy savodxonlikni shakllantirish zarur [4].

E. V. Gartsueva alohida shaxsning moliyaviy savodxonligi masalalariga alohida e'tibor qaratadi:

"Moliyaviy savodxonlik darajasi mamlakatdagi pul mablag'larining asosiy qismi jamlangan alohida fuqarolar va uy xo'jaliklarining joriy moliyaviy rejalashtirishi hamda moliyaviy mablag'larni boshqarish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, o'zi uchun haqiqatan zarur bo'lgan moliyaviy mahsulotni tanlay oladigan, shaxsiy moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalardan samarali foydalanuvchi kompetent investor nafaqat o'zining shaxsiy farovonligi va moliyaviy xavfsizligini ta'minlaydi, balki mamlakat moliyaviy tizimi barqarorligining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi."

TAHLIL VA NATIJALAR

Alohida shaxsning moliyaviy savodxonligi darajasiga bir qator muhim omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, shaxsning yoshi, ma'lumot darajasi, kasbi, mutaxassisligi yoki faoliyat yo'nalishi, iqtisodiy faollik darajasi, qiziqish doirasi hamda dunyoqarashining kengligi ushbu omillar sirasiga kiradi.

Ta'kidlash joizki, mazkur omillarni mazmuniga ko'ra birlamchi va ikkilamchi omillarga ajratish mumkin. Shaxsning yoshi, ma'lumot darajasi, kasbi, mutaxassisligi yoki faoliyat yo'nalishi birlamchi omillar sifatida namoyon bo'lsa, iqtisodiy faollik darajasi, qiziqish doirasi va dunyoqarashining kengligi ushbu birlamchi omillar ta'siri natijasida shakllanuvchi ikkilamchi omillar hisoblanadi. Masalan, iqtisodiy faollik darajasi (shuningdek, boshqa ikkilamchi omillar ham) ko'p hollarda shaxsning yoshi, ma'lumot darajasi, kasbi, mutaxassisligi yoki faoliyat yo'nalishiga bevosita bog'liq holda farqlanadi.

Quyida moliyaviy savodxonlikka ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillarning amal qilish xususiyatlari tahlil qilinadi.

1) Shaxsning yoshi.

Insonning yoshi, aniqrog'i, uning hayotiy faoliyati davomida orttirgan tajribasi moliyaviy savodxonlik doirasidagi bilim va ko'nikmalarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Balog'atga yetmagan bola bilan o'rta yoshdagi shaxsning iqtisodiy xatti-harakatlari o'rtasida muayyan tafovut mavjudligi tabiiy hol hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur omilning ta'siri har doim ham bir yo'nalishda bo'lavermaydi. Chunki yosh ulg'ayib borgan sari shaxsning yangi moliyaviy bilim va innovatsiyalarni qabul qilish hamda o'zlashtirish sur'ati ma'lum darajada sekinlashishi mumkin. Natijada, inson yoshi oshib borishi bilan moliyaviy savodxonlik darajasi ham muayyan bosqichgacha o'sib boradi, so'ngra esa barqarorlashadi yoki ayrim holatlarda pasayish tendensiyasi kuzatilishi mumkin. Mazkur bosqich turli shaxslarda turli yosh davrlarida namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.



2) Ma'lumot darajasi.

Ma'lumot darajasi moliyaviy savodxonlikka ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus va oliy ma'lumot bosqichlaridan izchil o'tish shaxsning moliyaviy bilim va ko'nikmalarining kengayishiga bevosita xizmat qiladi. Shaxsning yosh omilidan farqli ravishda, ma'lumot darajasi oshib borgani sari moliyaviy savodxonlik darajasi, odatda, uzluksiz ravishda yuksalib borish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu holat bilimning tizimli va muntazam tarzda yangilanib borishi bilan izohlanadi.

3) Kasbi, mutaxassisligi yoki faoliyat yo'nalishi.

Mazkur omil moliyaviy savodxonlik darajasini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bevosita iqtisodiy va moliyaviy sohada faoliyat yurituvchi shaxslar (jumladan, moliyachilar, bankirlar, iqtisodchilar, buxgalterlar va boshqalar) moliyaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga yuqori darajada ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Iqtisodiyot sohasidan nisbatan uzoq bo'lgan kasb egalari esa moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun qo'shimcha bilim va tajribaga ehtiyoj sezishi mumkin.

Ushbu omilni shartli ravishda uch toifaga ajratish maqsadga muvofiq:

- (a) noiqtisodiy yo'nalishlar (masalan, haydovchi, oshpaz, kosib va boshqalar);
- (b) iqtisodiyot bilan qisman uyg'un faoliyat turlari (masalan, huquqshunos, jurnalist, tadbirkor va boshqalar);
- (c) bevosita iqtisodiyot sohasi vakillari (masalan, moliyachi, bankir, iqtisodchi, buxgalter va boshqalar).

Har bir toifa uchun moliyaviy savodxonlik darajasining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida funksional bog'liqliklar shakllanishi kuzatiladi.

Alohida shaxsning moliyaviy savodxonligi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ikkilamchi omillar, yuqorida ta'kidlanganidek, birlamchi omillarning ta'siri natijasida shakllanadi. Quyida ushbu omillarning mazmun-mohiyati va ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi.

4) Iqtisodiy faollik darajasi.

Birlamchi omillarning (yosh, ma'lumot darajasi, kasb yoki faoliyat yo'nalishi) o'rtacha darajasida shaxsning iqtisodiy faolligi moliyaviy savodxonlikni belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Agar shaxsda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, iqtisodiyot va moliya sohasidagi yangiliklarga qiziqish bildirish, moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish kabi xatti-harakatlar shakllangan bo'lsa, uning moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi. Aksincha, iqtisodiy faollikning past darajasi moliyaviy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish sur'atini sekinlashtirishi mumkin. Shu bois, iqtisodiy faollikni oshirish moliyaviy savodxonlikni yuksaltirishning samarali omillaridan biri hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Jamiyatning turli toifalari uchun moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning ijobiy natijalari

Uy xo'jaliklari	Biznes subyektlari	Iqtisodiyot	Davlat
✓qo'shimcha moliyaviy bilimlar asosida moliyaviy mahsulotlardan ongli va samarali foydalanish imkoniyatlarining kengayishi; ✓oila budgetini maqbullashtirish orqali uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash; ✓qarz yukining me'yorida oshib ketishining oldini olish; ✓jamg'armalarning inflyatsiya ta'sirida qadrsizlanish xavfini kamaytirish; ✓moliyaviy firibgarlik holatlaridan himoyalash imkoniyatlarining kuchayishi; ✓iste'molchilarning o'z huquqlarini bilishi va himoya qila olish darajasining oshishi.	✓moliyaviy mahsulot va xizmatlar sifati hamda assortimentning kengayishi; ✓taklif etilayotgan moliyaviy mahsulotlar sifati uchun mas'uliyatning oshishi; ✓muayyan bozor segmentida faoliyat yurituvchi subyektlarning ishchanlik obro'sining yuksalishi; ✓kompaniyalar kapitallashuv darajasining barqaror o'sishi.	✓moliyaviy bozorlar shaffofligining oshishi; ✓iste'molchilarning moliyaviy ko'nikmalari rivojlanishi hisobiga innovatsiyalarni faol joriy etish va raqobat muhitini mustahkamlash; ✓investorlarning ratsional xatti-harakatlari natijasida moliyaviy bozorlarning barqarorlashuvi; ✓spekulyativ operatsiyalar ulushining qisqarishi; ✓fuqarolarning investitsion faolligi oshishi hisobiga iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuvi.	✓moliyaviy jihatdan yetuk va xabardor iste'molchilar orqali bozor mexanizmlarining samarali nazorat qilinishi; ✓davlat moliyasi yukining bosqichma-bosqich kamayishi va byudjet resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarining kengayishi.



5) Qiziqish doirasi, dunyoqarashining kengligi va boshqalar.

Shaxsning qiziqish doirasi hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan uzluksiz intilishi uning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kundalik iqtisodiy jarayonlar, voqea va hodisalarni muntazam kuzatish, ularni tahlil qilish hamda ushbu jarayonlarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirib borish fuqaroning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytiradi. Natijada, shaxs moliyaviy qarorlarni yanada ongli va mas'uliyatli qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hududiy omillarning moliyaviy savodxonlikka ta'siri

Muayyan hudud (viloyat, shahar yoki tuman) aholisining moliyaviy savodxonlik darajasiga ushbu hududning o'ziga xos xususiyatlari hamda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida shakllanuvchi qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar quyidagilardan iborat.

1) Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi.

Mazkur omil o'z mazmuniga ko'ra kompleks xarakterga ega bo'lib, ko'plab xususiy ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan ifodasini anglatadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son qaroriga 1-ilova sifatida tasdiqlangan "Reyting ko'rsatkichlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash tartibi to'g'risida nizom"da hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini baholash uchun statistik ko'rsatkichlarga asoslangan 8 ta ustuvor yo'nalish belgilab berilgan.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha nisbatan yuqori rivojlangan shahar, tuman yoki viloyatlar aholisi uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish imkoniyatlari kengroq bo'lib, bu holat moliyaviy bilim va ko'nikmalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2) Hududda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. Hududiy darajada moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Umuman olganda, bunday chora-tadbirlarning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan milliy dastur yoki strategiyaning qabul qilinishi;
- moliyaviy savodxonlikning alohida yo'nalishlari (bank, sug'urta, pensiya tizimi va boshqalar) bo'yicha maxsus dasturlarning ishlab chiqilishi;
- aholining muayyan qatlamlari (o'quvchilar, talabalar, pensionerlar va boshqalar) uchun mo'ljallangan maqsadli o'quv va targ'ibot tadbirlarining amalga oshirilishi.

Ayrim shahar, tuman yoki viloyatlar miqyosida mazkur chora-tadbirlarning tizimli va izchil amalga oshirilishi aholi moliyaviy savodxonligi darajasining barqaror oshishiga xizmat qiladi.

3) Moliyaviy institutlar va infratuzilma ob'ektlari faoliyati darajasi.

Hududda faoliyat yuritayotgan moliyaviy institutlar, jumladan, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya va pensiya fondlari, shuningdek, moliyaviy savodxonlik infratuzilmasi ob'ektlari (maslahat markazlari, biznes-inkubatorlar, o'quv markazlari va boshqalar) faoliyatining yuqori darajada tashkil etilishi aholi moliyaviy savodxonligining yuksalishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4) Hududning geografik joylashuvi.

Hududning mamlakatning iqtisodiy va ma'muriy markazlariga yaqinligi moliyaviy xizmatlar infratuzilmasining rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Markaziy hududlarda tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, pul ayirboshlash shoxobchalari, kredit byurolari hamda investitsiya kompaniyalari faoliyati kengroq rivojlangan bo'ladi. Ushbu moliyaviy xizmatlardan kundalik hayotda faol foydalanadigan aholi qatlamida moliyaviy savodxonlik darajasi ham yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yashovchi aholi uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish orqali ushbu tafovutni bosqichma-bosqich kamaytirish mumkin.

Mamlakat aholisining moliyaviy savodxonligi darajasiga bir qator makroiqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar quyidagilardan iborat.

1) Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik aholining ma'lumot darajasi, sog'liqni saqlash tizimi rivoji hamda ish bilan bandlik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks tushuncha hisoblanadi. Mazkur tarkibiy ko'rsatkichlar qanchalik yuqori darajada shakllangan bo'lsa, aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniyatlari shunchalik kengayadi. Natijada, mamlakat aholisining moliyaviy savodxonligi darajasi barqaror va ijobiy tendensiya asosida rivojlanadi.


2) Mamlakatning iqtisodiy salohiyati.

Iqtisodiy salohiyat mamlakatda mavjud bo'lgan, biroq hali to'liq ishga tushirilmagan iqtisodiy resurslar va imkoniyatlar majmuini ifodalaydi. Ushbu resurs va imkoniyatlar amaliyotga to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, ular aholi orasida iqtisodiy faollikni kuchaytiradi hamda yangi moliyaviy tashabbus va g'oyalarga bo'lgan qiziqishni rag'batlantiradi. Shu bois, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga intilish aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.



3) Aholi mentaliteti.

Aholi mentaliteti, ya'ni aqliy, hissiy va madaniy xususiyatlar hamda qadriyatlar tizimi moliyaviy savodxonlikning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ayrim jamiyatlarda ta'lim va madaniyatga, innovatsiyalar va yangiliklarni qabul qilishga intilish kuchli bo'lib, bu holat moliyaviy bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mentalitetning o'ziga xos jihatlari moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayoniga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar esa maqsadli ta'limiy va targ'ibot choralari amalga oshirish orqali ijobiy yo'nalishda rivojlantiriladi (1-rasm).



1-rasm. Aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabi va taklifiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar [5]

4) Mamlakatning iqtisodiy siyosati.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat bunyodkorlik, barqaror yuksalish va uzoq muddatli taraqqiyotga yo'naltirilgan bo'lsa, ushbu maqsadlarga erishishning muhim shartlaridan biri sifatida aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, moliyaviy bozorlar barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy savodxonlik darajasi, odatda, mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur masala rivojlangan mamlakatlarda ham doimiy e'tibor va takomillashtirishni talab qiladigan yo'nalish sifatida qaraladi.

A. Vahobov va boshqa bir qator olimlarning ta'kidlashicha, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari amalga oshirilayotgan mamlakatlarda moliyaviy xizmatlar taklifiga moliya bozori parametrlaridagi o'zgarishlar sezilarli ta'sir ko'rsatsa, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabiga esa asosan ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik omillar kuchli ta'sir etmoqda [5]. Aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabi va taklifiga ta'sir ko'rsatuvchi mazkur omillarni 1-rasmda keltirilgan chizma orqali tizimli ravishda ifodalash mumkin.

Yuqoridagi rasm tahlilidan ko'rinadiki, mamlakat aholisining moliyaviy savodxonligi darajasi moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni shakllantiruvchi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat aholi farovonligini yuksaltiradi, balki moliyaviy bozorlarning samarali faoliyat yuritishiga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy savodxonlik shaxsning moliyaviy xulq-atvori sohasida uning farovonligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga xizmat qiluvchi bilimlar, ko'nikmalar va qadriyatlar majmui bo'lib, u hayotiy voqealar hamda iqtisodiy shart-sharoitlardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qisqa muddatli moliyaviy qarorlar qabul qilish va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish orqali shaxsiy moliyani samarali boshqarish qobiliyati va mas'uliyatini,



shuningdek, asosiy moliyaviy tushunchalarni anglash darajasini ifodalaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining, ayniqsa yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, jahon tajribasida mavjud bo'lgan aholi moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini qamrovi, mazmuni, moliyaviy manbalari hamda amalga oshirish mexanizmlariga ko'ra tizimli tahlil qilish asosida O'zbekistonda aholining turli ijtimoiy guruhlarini qamrab oluvchi, maqsadli va moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ta'limiy va targ'ibot ishlarini maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'lim tizimigacha uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida tashkil etish, shuningdek, norasmiy ta'lim shakllaridan keng foydalanish orqali aholining amaliy moliyaviy ko'nikmalarini mustahkamlash zarur. Mamlakat miqyosida aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish jarayonini samarali tashkil etishda mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlarni mazmunan yaqin va o'zaro bog'liq dasturlar bilan uyg'un holda amalga oshirish, tadbirlarning shakl va mazmun jihatidan takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik hamda mavjud tashkiliy va institutsional imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, jahon tajribasi aholining moliyaviy savodxonligini faqat cheklangan respondentlar guruhi asosida baholash mazkur holatni to'liq aks ettirmasligini ko'rsatadi, shuning uchun "mahallabay" ishlash tizimi doirasida mahalla fuqarolarining moliyaviy savodxonlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan tadbirlar tarkibiga elektron savolnoma va raqamli baholash vositalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Aholining shaxsiy jamg'armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan uzviy bog'liq holda shaxsiy jamg'arma shakllantirish va uni ko'paytirish ko'nikmalarini rivojlantirish, jamg'arish jarayonini rag'batlantiruvchi avtomatik moliyaviy dastaklarni joriy etish, shaxsiy jamg'armalarni oqilona va samarali sarflash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash hamda jamg'armalarning investitsiyaga aylanish jarayonlarini soddalashtirish va ularning ochiqqligi hamda ishonchiligidini ta'minlash muhim yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вахабов Абдурахим Васикович, Хажибакиев Шухрат Хўжаёрович. Истеъмолчиларнинг молиявий саводхонлик даражасини ошириш муаммолари // Экономика и финансы (Ўзбекистон). – 2022. – № 4 (152). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/istemolchilarning-moliyaviy-savodhonlik-darazhasini-oshirish-muammolari> (мурожаат санаси: 05–04–2024).
2. Тешабаева О. Н. ва бошқалар. Аҳоли молиявий саводхонлиги ўсишининг тадбиркорлик фаолияти ва даромадлар даражасининг ошишига таъсири // Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 29. – Б. 348–355.
3. Восканян Р. О. Финансовая грамотность как условие формирования финансовой культуры // Azimuth of Scientific Research: Economics and Administration. – 2018. – Т. 7. – № 1 (22).
4. Гарцуева Е. В. Финансовая грамотность индивида – условие его успехов в рыночной экономике // Вестник Томского государственного университета. Экономика. – 2017. – № 38. – Б. 92.
5. Vaxabov A. V. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma / A. V. Vaxabov, Sh. A. Toshmatov, N. X. Xaydarov, A. V. Vaxabov. – Toshkent: Baktria Press, 2013. – 288 b.
6. Абдувохидов А. А. ва бошқалар. Иқтисодиётни барқарор ривожлантиришда тижорат банкларининг ўрнини кенгайтириш масалалари // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – № 11. – Б. 252–263.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>